

Tanlov qanday bosqichlardan iborat?

1. xorijdaish.uz sahifasida onlayn ro'yxatdan o'tasiz.

Muvaffaqiyatli ro'yxatdan o'tish uchun sizga, O'zbekiston Respublikasi fuqarosining xorijga chiqish pasporti,

Gmail elektron pochtangiz, (ism-familiyangiz chet elga chiqish pasportingizdagidak bo'lishi shart), yorqin fonda pasport o'lchamidagi elektron fotosurat kerak bo'ladi.

! E'tibor bering: onlayn ro'yxatdan o'tish tanlovning keyingi bosqichlarida ishtirok etishni kafolatlamaydi. Bu "HOPS"ning avtomatik tanlov tizimiga bog'liq.

2. Onlayn test sinovi "HOPS" operatori tomonidan 2025 yil 14-15-yanvar kunlari o'tkaziladi.

Test ma'lumotlari faqat ro'yxatdan o'tgan va ish beruvchi tomonidan tanlangan fuqarolarga elektron pochta orqali yuboriladi. Elektron pochtangizni diqqat bilan tekshirishingiz kerak.

3. "HOPS" vakillari onlayn test orqali tanlangan nomzodlar bilan bog'lanib, oflayn suhbat o'tkazadi va qo'shimcha ko'rsatmalar beradi.

Ariza beruvchilar uchun mezonlar:

- 18-50 yosh;
- rus tilini bilishi;
- yaxshi jismoniy va psixologik holat.

Mehnat sharoitlari:

- ish haqi soatiga 11,44€ (15\$ atrofida);
- ish beruvchi haftasiga kamida 32 soat ishlashni kafolatlaydi;
- viza va aviachipta xarajatlari ketuvchi hisobidan.